



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





LINGVOKOGNITIV TILSHUNOSLIKDA SSENARIY VA SKRIPT TUSHUNCHALARINING TAHLILI

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Xurramova Barno

Rajabova Nafisa

TerDPI 3-kurs talabalari

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvokognitiv tilshunoslik doirasida “senariy” va “skript” tushunchalarining mazmuni, ularning kognitiv modeldagi o'rni hamda til birliklari orqali namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada Fillmor, Shank, Lakoff, Langacker va boshqa kognitiv olimlarning nazariyalari asosida senariy va skriptlarning inson tafakkuridagi bilim strukturalarini shakllantirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ssenariy, skript, lingvokognitiv tilshunoslik, kognitiv model, konseptual tuzilma, freym, madaniy ssenariy.

Аннотация

В статье анализируются понятия “сценарий” и “скрипт” в рамках лингвокогнитивной лингвистики, их место в когнитивной модели и особенности проявления через языковые единицы. Рассматриваются теоретические подходы Ч.Филлмора, Р.Шенка, Г.Лакоффа и Р.Лангакера к проблеме сценариев и скриптов в структуре человеческого знания.

Ключевые слова: Сценарий, сценарий, лингвокогнитивная лингвистика, когнитивная модель, концептуальная структура, фрейм, культурный сценарий.

Annotation

This article analyzes the concepts of “scenario” and “script” within the framework of linguocognitive linguistics, their role in the cognitive model, and their manifestation through linguistic units. Theoretical approaches of Ch.Fillmore, R.Schank, G.Lakoff, and R.Langacker to the issue of scenarios and scripts in human knowledge structures are discussed.

Keywords: Scenario, script, linguocognitive linguistics, cognitive model, conceptual structure, frame, cultural scenario.

KIRISH

Lingvokognitiv tilshunoslik til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir. U tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki insonning bilim va tajribasini ifodalovchi kognitiv model sifatida tahlil qiladi. Shu ma'noda, senariy va skript tushunchalari insonning dunyo haqidagi bilimlarini tilda qanday ifodalashini tushuntiruvchi muhim vositalardir.

ASOSIY QISM

Ssenariy (scenario) — bu inson tafakkurida voqealarni, vaziyatlarni va ular bilan bogʻliq harakatlarni ketma-ket tizimlashgan shaklda saqlash va tushunish mexanizmi. Ingliz tilida: a structured sequence of expected events in a particular context. Oʻzbek tilida: ijtimoiy yoki madaniy kontekstdagi voqealar zanjiri, yaʼni kognitiv modeldagi voqealar va ularning oʻzaro bogʻlanishi demakdir. Senariylar odamning kundalik hayotdagi tajribalarini tashkil qiladi va nutqda bu tajribalarni ifodalashga yordam beradi. Bu baʼzi olimlarning tajribalaridan asoslangan. Senariy tushunchasi lingvokognitiv yondashuvda kognitiv model va voqealar, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi til birliklari orqali (soʻz, ibora, gap, mant) ifodalanadi.

Skript (script) — bu inson ongida muayyan vaziyat, voqea yoki hodisa haqida avvaldan shakllangan ketma-ket harakatlar modeli boʻlib, u tajriba asosida tuziladi va yangi vaziyatlarni tushunishda foydalaniladi. Boshqacha aytganda, skript — bu ongimizdagi “voqealar ssenariysi”. Lingvokognitiv tilshunoslikda skript quyidagi jihatlarida oʻrganiladi: 1. Bu bilimning dinamik shakli, yaʼni inson ongidagi tajriba doimiy ravishda yangilanadi. 2. Har bir skript madaniy, milliy va ijtimoiy xususiyatlar bilan bogʻliq. 3. Skript tilda freym, propozitsiya va senariy kabi tushunchalar bilan chambarchas aloqada.

Ssenariy va skript tushunchalari R.Shank va R.Abelson (1977) tomonidan ishlab chiqilgan. Ular inson tafakkurida voqealarni ketma-ket anglash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ch.Fillmore (1982) freym semantika nazariyasi bilan bu tushunchalarni boyitdi, G.Lakoff (1987) esa konseptual metaforalar orqali ularni kognitiv jihatdan tushuntirdi.

Ssenariy va skriptlarning lingvokognitiv oʻzaro aloqasi quyidagilardir: Skript (script) – bu inson ongida maʼlum bir takrorlanadigan vaziyat (hodisa, voqea) boʻyicha shakllangan harakatlar zanjiri modelidir. Masalan: “Restoranga borish”, “Bozorga chiqish”, “Kutubxonada ishlash” kabi kundalik skriptlar. Senariy (scenario) – bu bir nechta skriptlarni oʻz ichiga oluvchi, kengroq kognitiv model, yaʼni voqealar rivojlanishining umumiy sxemasi. Masalan: “Toʻy ssenariysi” oʻz ichiga “kelin salomi”, “nikoh”, “mehmon kutish”, “raqs”, “duo qilish” kabi bir nechta skriptlarni oladi. Skript – bu ssenariyning tarkibiy qismi, ssenariy esa skriptlarning tizimidir. Ular orasidagi bogʻliqlik “qism-butun” munosabatiga asoslanadi. Kognitiv psixologiyada (Schank & Abelson, 1977) taʼkidlanishicha: “Skriptlar inson xotirasida mavjud boʻlgan tipik tajribalarning strukturaviy shaklidir; ular birlashib ssenariyni hosil qiladi.” Ushbu tushunchadan kelib chiqadiki “skript” – bu avtomatik xotira modeli; “ssenariy” – bu murakkab kognitiv konstruktsiya, u bir nechta skriptlarning mantiqiy bogʻlanishidan tashkil topadi.

Tilshunoslikda skript va ssenariy freym semantika, diskurs tahlili, madaniy tilshunoslik kabi yoʻnalishlarda qoʻllaniladi:

1. Freym — voqea yoki holatni ifodalovchi semantik struktura. 2. Skript — shu freymning harakatlar ketma-ketligi. 3. Senariy — ushbu skriptlarning o‘zaro bog‘langan tizimi.

Buni quyidagi misolda tahlil qilish mumkin: Freym: “Restoran” Skript: “Buyurtma berish”, “Ovqatlanish”, “To‘lov qilish” Senariy: “Restoranga borish” – bu barcha skriptlarni birlashtiruvchi jarayon.

Til birliklarida ifodalanishi. O‘zbek tilida “mehmon keldi” iborasi butun madaniy ssenariyni, ya’ni mehmon kutish, dasturxon yozish, so‘rashish va choy quyish jarayonlarini chaqiradi. Frazelogizmlar, masalan “ko‘nglini olish”, “qadam ranjida qilmoq”, skriptlarni lingvistik shaklda ifodalaydi. Leksik darajada: “bozor”, “savdo”, “olish-berish” kabi so‘zlar shu tajriba bilan bog‘liq semantik maydonni faollashtiradi. Sintaktik darajada: “U bozorga borib, sabzi oldi” kabi gaplar skriptning ma’lum qismini aks ettiradi. Matn darajasida: hikoya, dialog yoki voqea bayonida to‘liq skript rivojlanadi. Til va tafakkurda skriptning roli: Inson nutqini tezroq tushunish va to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi; Madaniy tafovutlarni tushuntirishda asos bo‘lib xizmat qiladi; Matn mazmuni va diskursni tahlil qilishda asosiy vosita sifatida qo‘llanadi.

Lingvokognitiv tilshunoslikda til birliklari — bu inson ongidagi bilim, tajriba va madaniy modelni til vositasida kodlash uchun xizmat qiluvchi elementlardir. Senariy va skript esa aynan shu til birliklari orqali nutqiy shaklga kiradi, ya’ni til orqali “jonlanadi”. Til birliklari bu jarayonda: a) kognitiv modelni ifodalaydi, b) voqealar zanjirini tartiblaydi, d) madaniy axborotni yetkazadi. Leksik birliklar: so‘z va so‘z birikmalari orqali senariy va skript tarkibi ifodalanadi. Kelin, mehmon, choy, to‘y, duo, sovg‘a, raqs “To‘y” yoki “mehmondo‘stlik” senariylarida faol ishlatiladi.

Frazelogizmlar: madaniy va hissiy tajribani ifodalaydi. Ko‘nglini olish, qadam ranjida qilmoq, ko‘z-qulog‘im bo‘lmoq “Milliy madaniyat” ga xos skriptlarni ifodalaydi.

Fe‘llar (harakat bildiruvchi so‘zlar): skriptning asosiy “harakat bosqichlarini” ifodalaydi. kir-, chiq-, so‘ra-, ol-, ber-, duo qil- har bir skript ketma-ketligi fe‘l orqali shakllanadi.

Sintonik birliklar (gaplar): skriptning qismlari va ketma-ketligini bog‘laydi. U mehmonni kutib oldi. Choy qo‘ydi. Ovqat tortdi. Har bir gap — skriptning bosqichi.

Matn birliklari: butun senariyni ifodalaydi; kontekstual bir butunlik yaratadi. To‘y ertalab boshlandi... Kelin va kuyovni duo qilishdi. Matn — senariy darajasidagi tildagi realizatsiya.

Diskurs birliklari: ijtimoiy vaziyat, so‘zlovchi va tinglovchi rollarini belgilaydi. Assalomu alaykum, marhamat, o‘tiravering! Madaniy ssenariy (masalan, mehmondo‘stlik)da faol qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida ma’lum madaniy senariylar mavjud. Madaniy ssenariy (cultural script) — bu til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi

tushuncha bo'lib, u ma'lum xalqning nutq odatlari, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Bu atama avvalo Anna Wierzbicka va Cliff Goddard tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular "madaniy senariylar nazariyasi" orqali har bir xalqning o'ziga xos til va tafakkur tarzini tahlil qilishgan.

O'zbek tilidagi madaniy senariylarning asosiy xususiyatlari: 1. Hurmat va odobga asoslanish O'zbek tili va madaniyatida katta-kichikka, ota-onaga, mehmonlarga hurmat juda muhim. Misol: "Assalomu alaykum" salomi har bir suhbatning boshlanishida zarur. Yoshlar kattalarga "siz" deb murojaat qiladi, "sen" shakli esa yaqin munosabatda ishlatiladi. 2. Jamoaviylik (kollektivizm) O'zbek jamiyatida "biz" tushunchasi "men" tushunchasidan ustun. Misol: "Birgalikda ishlaylik", "barchamizning fikrimiz muhim". Bu senariy shaxsning jamoadagi o'rnini va birdamlikni ifodalaydi. 3. Mehmondo'stlik va bag'rikenglik "Mehmon – xudo mehmoni" degan maqol o'zbeklarning mehmonni qadrlash senariysini ko'rsatadi. Har bir mehmonni iliq kutish, dasturxon yozish, hurmat bilan so'rashish madaniy odatdir.

Kamtarlik va ehtirom O'zbek tili orqali "men" emas, "boshqalar"ni yuksaltirish odati shakllangan. Misol: "Yaxshilar orasida kimman men", "Odamlar sizga o'xshasa edi" kabi ifodalar kamtarlik senariysini aks ettiradi. 5. Oila qadriyatlari Oila markaziy o'rinda turadi. Gaplar, so'zlashuvlar va iboralar ham oilaviy munosabatlarni e'tiborga oladi. Misol: "Ota-onang omon bo'lsin", "Bolalaring tinchmi?" – bu so'rashuvning madaniy shakllari.

"Ssenariy" va "skript" tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular mazmun va qo'llanish doirasi jihatidan farqlanadi. Har ikkisi inson tajribasi va bilimni ifodalashda muhim kognitiv birlik sanaladi, biroq ularning asosiy farqi qaysi sohaga tayanishida va qanday tajribani ifodalashidadir.

Ssenariy asosan madaniy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq. U xalqning urf-odatlarini, qadriyatlari, muomala madaniyati kabi jihatlarni aks ettiradi. Masalan, o'zbek jamiyatida "mehmon kutish", "to'y marosimi", "salomlashish" kabi jarayonlar ma'lum ketma-ketlikda amalga oshadi. Bu holatlar har bir o'zbek uchun tanish bo'lib, ularning ongida milliy tajriba asosida shakllangan madaniy model sifatida mavjud. Shuning uchun senariy madaniy mazmunni o'zida mujassam etgan bo'ladi.

Skript esa ko'proq insonning individual tajribasiga asoslangan kognitiv model hisoblanadi. U turli vaziyatlarda inson qanday harakat qilishini ongda saqlovchi tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "restoranga borish" skripti har bir insonda deyarli bir xil bo'ladi: kirish, joy tanlash, buyurtma berish, ovqatlanish, to'lov qilish va chiqish. Bu ketma-ketlik madaniy jihatdan emas, balki tajriba va idrok jarayoniga tayanadi. Shunday qilib, ssenariy kengroq va madaniy mazmunga ega, chunki u jamiyatning qadriyatlari va urf-odatlarini ifodalaydi. Skript esa torroq va kognitiv xususiyatli bo'lib, u inson tajribasida qayta takrorlanadigan holatlar orqali nutq va tafakkur jarayonini

tartibga soladi. Umuman olganda, ssenariy – bu madaniy model, skript esa kognitiv modeldir. Ikkalasi ham til tizimi orqali ifodalanadi, biroq ssenariy milliy madaniyatni tushunish uchun, skript esa inson tafakkuridagi bilim tuzilmalarini tahlil etish uchun qo'llanadi. Shu sababli ularning o'rganilishi tilshunoslikda ham, psixologiyada ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatika — bu til vositalarining muloqot jarayonida maqsadli qo'llanishi, ya'ni nutqning kimga, qachon va qanday sharoitda aytilganiga e'tibor qaratadigan yo'nalishdir. Shu nuqtai nazardan ssenariy va skript tushunchalari insonning muloqotdagi nutqiy xatti-harakatlarini izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ssenariy pragmatik jarayonda muloqot madaniyati va ijtimoiy rolga mos nutq shakllarini belgilaydi. Masalan, o'zbek tilidagi “salomlashish ssenariysi”da “Assalomu alaykum”, “Yaxshimisiz?”, “Ishlar joyidami?” kabi so'zlar ma'lum ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladi. Bu ssenariy so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi hurmat, ijtimoiy masofa va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Skript esa pragmatik nuqtai nazardan muloqot ishtirokchisining oldindan shakllangan tajriba modelini bildiradi. Masalan, inson telefon orqali suhbatlashayotganda yoki rasmiy uchrashuvda qanday so'zlashishi kerakligini ongida oldindan biladi — bu “suhbat skripti” hisoblanadi. Shu tarzda skript so'zlovchining nutqiy maqsadiga muvofiq, qanday ifodalarni tanlashini boshqaradi. Shunday qilib, pragmatika doirasida ssenariy — madaniy kontekstga, skript esa individual nutqiy tajribaga tayanadi. Ular muloqot jarayonining mazmunini, ohangini va nutqiy strategiyasini belgilashda o'zaro uyg'un holda faoliyat ko'rsatadi.

Diskurs — bu tilning amaliy qo'llanish shakli, ya'ni ma'lum kommunikativ vaziyatdagi matn va nutq jarayonining birligidir. Diskurs tahlilida ssenariy va skript tushunchalari nutqning tuzilmasini va ma'nosini anglashda muhim o'rin tutadi.

Ssenariy diskursiv jarayonda nutqning umumiy tuzilishini va ijtimoiy-madaniy fonini belgilaydi. Masalan, “dars jarayoni ssenariysi”da o'qituvchining salomlashuvi, mavzuni e'lon qilishi, savol-javob, topshiriq berish va yakuniy xulosa qilish kabi bosqichlar mavjud. Bu diskursiv ssenariy muloqotning izchilligini va maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Skript esa diskursda nutq ishtirokchilari qanday reaksiya bildirishi yoki qanday ketma-ket harakat qilishini ko'rsatadi. Masalan, talabalar darsda savol berilganda javob berish, qo'l ko'tarish, fikr bildirish kabi xatti-harakatlarni oldindan bilishadi — bu dars jarayonining skriptidir.

Diskurs tahlilida ssenariy nutqning kontekstual asosini, skript esa uning dinamik harakatlanish mexanizmini ifodalaydi. Ular birgalikda matn va muloqotning mantiqiy tuzilishini, ishtirokchilarning kommunikativ niyatini va nutqiy strategiyalarini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA



Xulosa qilib aytganda, ssenariy va skriptlar lingvokognitiv tahlilda inson tafakkuri va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beruvchi samarali tushunchalardir. Ular bilim strukturasi tartibga soladi va til orqali bu bilimlarni ifodalash imkonini beradi. Maqolada ilmiy manbalar asosida madaniy, qiyosiy va pragmatik tahlillar keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fillmore, Ch. (1982). Frame Semantics. Linguistic Society of Korea.
2. Talmy, L. (2000). Toward a Cognitive Semantics. MIT Press.
3. Karimov, M. (2020). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Abdullayeva, N. (2021). Til va tafakkur munosabatida kognitiv model. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
5. Shirinova, D. (2019). Til va madaniyat: kognitiv yondashuv. 'Filologiya masalalari' jurnali, №3.
6. Akbarov, S. (2018). Lingvokognitiv tahlil metodlari. Toshkent: Fan nashriyoti.

